



## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING IJTIMOIY REABILITATSIYA VA IJTIMOIY MOSLASHTIRISH SOHASIDAGI FAOLIYATI

**320-guruh kursanti G'ofuraliyev Shermuhammad Sherali o‘g‘li**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola profilaktika inspektorlarining ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish sohasidagi faoliyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** , profilaktika inspektori, xavfsizlik, ijtimoiy reabilitatsiya,ijtimoy moslashuv, markaz, , qoidalar, hamkorlik, jamoat xavfsizligi.

Funksional vazifasiga ko‘ra aholi bilan to’g’ridan-to’g’ri ishlovchi faoliyat - bu huquqbazarliklar profilaktikasi xizmatidir. Huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari, aholi bilan ishslash jarayonida ularni har qanday vaziyatda huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini muhofaza etishlari lozim. Profilaktika inspektori o‘z xizmat faoliyatini bir qator normativ hujjatlarga amal qilgan holda amalga oshiradi. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qononi, "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni, "Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2833-sонли Qarori, Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni va boshqa shu kabi ichki idoraviy hujjatlar orqali o‘z faoliyatlarini amalga oshirishadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-noyabr kunidagi "O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini ta'minlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 27-son farmoni qabul qilinishi orqali profilaktika inspektorlarining xizmat faoliyatlariga kiruvchi aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur vazifalar 22 tani tashkil qilib profilaktika inspektorlarining o‘z



ma'muriy hududlarida huquq tartibot, aholi tinch totuvligi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan vazifalardir.

Farmonda ko'rsatilmagan vazifalardan biri bu favqulodda vaziyatlardagi profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlashga qaratilgan faoliyatidir. Profilaktika inspektorlari o'zlariga biriktirilgan ma'muriy hududda aholini favqulodda holatlar vaqtida himoya qilish ularning salbiy oqibatlarga olib kelish xavfini oldini olish yoki ta'sir darajasini maksimal kamaytirishga qaratilgan kompleks tadbirlar amalga oshirishi va bu borada favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari bilan chuqur hamkorlik qilishi kerak. Profilaktika inspektorining ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish sohasidagi faoliyati keng ko'lamli bo'lib, bir qator muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Ularning asosiy maqsadi - jinoyatchilikka moyil shaxslarni jamiyatga qaytarish va ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olishdir.

Reabilitatsiya dasturlarini tashkil etish va amalga oshirish bunda jinoyat qilgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish uchun reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi psixologik, ta'limiy va kasbiy yordamni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy moslashtirish masalalarida esa shaxslarni ijtimoiy hayotga qaytarish uchun qo'llab-quvvatlash, jumladan, ularni ish bilan ta'minlash, uylantirish yoki o'qitish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish. Ta'qib va monitoringda esa jinoyatchilikka moyil shaxslarni kuzatish va ularning xatti-harakatlarini nazorat qilish orqali ularning yana jinoyat sodir etishining oldini olishga yordam beradi. Xavf guruhlarini aniqlash va ular bilan ishlash jarayonida jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan xavf guruhlariga kiruvchi shaxslarni aniqlash va ularning jinoyat sodir etishining oldini olish uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish masalasi bo'lib bu guruhlar odatda iqtisodiy jihatdan zaif, past ijtimoiy statusga ega yoki oldin jinoyat sodir etgan shaxslar bo'lishi mumkin.



Reabilitatsiya muassasalari bilan hamkorlik, bunda reabilitatsiya markazlari, ijtimoiy xizmatlar va boshqa tegishli muassasalar bilan yaqin hamkorlikda ishlashni o'z ichiga oladi va bu hamkorlik reabilitatsiya jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maslahat va psixologik yordam sohasida shaxslarni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularga kerakli maslahatlar berish orqali ularning ruhiy holatini yaxshilash va ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam beradi. Jamoatchilik bilan hamkorlikda jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda ishlash, shu jumladan, jamoat tashkilotlari va notijorat tashkilotlar bilan birgalikda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish. Oilaviy qo'llab-quvvatlash masalasida esa muammoli oilalar bilan ishlash, ularga yordam berish va ularni jamiyatga qayta integratsiya qilish, bu ayniqsa yoshlari va bolalar uchun muhimdir. Huquqiy ma'lumot berishda shaxslar va oilalarga huquqiy ma'lumot berish, ularga o'z huquqlarini bilish va himoya qilishda yordam ko'rsatish masalalari olib boriladi.

Bu faoliyatlar orqali profilaktika inspektorlari shaxslarning ijtimoiy hayotga qaytishi va ularga moslashishiga katta hissa qo'shadilar. Ularning vazifalari shaxslarni nafaqat qonuniy, balki ijtimoiy jihatdan ham qo'llab-quvvatlash va jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berishga qaratilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr)/ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi// <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
2. Криминальное насилие: общие проблемы и опыт борьбы в Республике Саха (Якутия) [Текст] / отв. ред. А. И. Долгова. – М., 2004.
3. Gender zo'ravonlik bo'yicha ichki ishlar organlari tomonidan huquqni muhofaza qilish xizmatlarini taqdim etishning standart operatsion ish tartiblari [Math]:



йўриқнома / адаптация бўйича мутахассис В. О. Самадович. — Тошкент: Baktria press, 2021. — 48 б.

4. Жалилов, Н. 2022. Профилактика инспектори маъмурий иш юритиш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Жамият ва инновациялар . 2, 12/S (Feb. 2022), 348–352. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss12/S-pp348-352>
5. Жалилов, Н. 2022. Ҳукуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси институтининг назарий асослари. Жамият ва инновациялар . 3,4/S (May 2022), 397– 403. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/Spp397-403>
6. Таштемиров А. А. Техник криминалистик экспертиза - ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг асосий омили сифатида //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 12-19.